

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA SIFAT DARAJALARINING MA'NOLARI QIYOSIY TAHLILI

Pirnazarov Abduhakim Toksanovich

Oriental Universiteti

Lingvistika mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Telefon raqami +998935678998

Ilmiy rahbar: f.f.d, professor Shamusarov Sharustam Giyasovich

O'zbek tilida sifat darajalari to'rtta bo'lsa, arab tilida esa sifatning uch darajasi mavjud ekan. Bular- ijobiy (oddiy), chog'ishtirma va orttirma. Ozaytirma daraja alohida ko'rsatilmagan. Yuqorida keltirilgan sifatlarning barchasi oddiy daraja sifatlari. Demak arab tilida sifatlar uch o'zakli so'zlardan maxsus qoliplar orqali yasalar ekan, o'zbek tilida esa sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama bo'lib, yasama sifat so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali yasaladi, arab tilida sifat aniqlanmishdan keyin, o'zbek tilida esa aniqlanmishdan oldin keladi. Arab tilida sifatlar ham otlar kabi jins, son va holat kategoriyasiga ega. O'zbek tilida esa jins va ikkilik son kategoriyalari mavjud emas. Sifatning birlik shakli ham, ko'plik shakli ham bo'lmaydi. O'zbek tilidan farqli ravishda arab tilida sifatlar kelishik qo'shimchalarini otlar kabi qabul qiladi. Arab tilida esa sifatlarning ma'lum o'rinda qanday holatda, jinsda, sonda, kelishikda kelishi ularning gapdagi vazifasi va boshqa gap bo'laklari bilan munosabatlariga bog'liq bo'lar ekan.

Demak, sifatning ijobiy (oddiy) darajasi narsadagi xossani qayd qilishi ma'lum:

غرفة كبيرة - *katta xona*

لباس جميل - *chiroyli kiyim*

Chog'ishtirma darajadagi sifat bir narsadagi xos belgini boshqa narsadagi ayni shu belgi bilan chog'ishtiradi, qiyoslaydi. Boshqacha aytganda, sifatning chog'ishtirma darajasi narsalardagi bir turli belgilarni miqdorga ko'ra bir - birlaridan farqlash zaruriyatidan tug'iladi. Bunday sifatlar من أفعل qolipida yasaladi. Masalan,

المدينة أكبر من القرية

Shahar qishloqdan kattaroqdir.

Arab tilida sifatlarning chog'ishtirma darajasi chog'ishtirilayotgan narsalarning soni va jinsidan qat'iy nazar, doimo bir shaklda - birlik va muzakkarda bo'ladi. Agar bir narsaning turli xossasi turli davrlarda yoki turli holatlarda qiyoslashtirilayotgan bo'lsa, ortiqcha qaytariqdan qochib, o'sha narsa nomiga mos tushuvchi olmosh bilan almashtirilishi mumkin:

عاصمتنا في هذه السنة أجمل مدها في السنة الماضية

Poytaxtimiz bu yil o'tgan yildagidan chiroyliroqdir.

Agar chog'ishtirma daraja sifatlaridan keyin gapda bevosita fe'l kelishi kerak bo'lsa من ko'makchisiga qo'shimcha ravishda nisbiy olmosh ما orttirilib, so'ng fe'l shakli qo'shiladi. Bunda nisbiy olmosh maxsus ajratuvchi vazifasini o'taydi:

عدد العمال في هذه السنة أكثر منها في السنة الماضية

Narigi zavodda ishchilar soni bu yil o'tgan yillardagidan ko'proqdir.¹

الطقس اليوم أجمل مما كان أمس

Bugun ob-havo kechagidan ko'ra yaxshiroqdir.²

الطقس في الربيع أجمل مما كان أمس

Ob-havo bahorda qishdagidan go'zalroqdir.³

Bizga ma'lumki, sifatning orttirma darajasi har ikki jinsda alohida shaklga ega bo'lib, ular oddiy sifatlardan quyidagi vaznlarda yasaladi:

Muzakkar بيت أكبر - eng katta uy

Muannas مدرسة صغيرة - eng kichik maktab

Sifatning orttirma darajasi o'zbek va rus arabshunoslarining biz o'rgangan asarlarida asosan 3 usulda hosil qilinadi.

Tahlillar natijasida yana shu aniq bo'ldiki olimlarning tahlillari va nuqtai nazaridan kelib chiqib sifatning rang va jismoniy belgilarni bildiradigan "asl sifatlar" guruhi borligi

Sifatlar otlashganda otning butun morfologik belgilarini, ya'ni kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi. Umuman olganda bir mavzuni ikki tilda qiyosiy o'rganish juda qiziqarli bo'ldi va shu mavzu yuzasidan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishga katta yordam berdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. – 617 b.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1 jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1997. – 452 b.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 2 jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2004. – 645 b.
4. Qosimxonov B., Lutfullaev H., Islamov Sh. O'zbek tilidagi toshbosma kitoblar katalogi. 1-jild. – Toshkent, 2014. – 367 b.

¹ Талабов Э. Араб тили дарслиги. –Т.: Ўзбекистон, 1993. – Б.124

² Ковалев А.А, Шарбатов Г.Ш. Учебник арабского языка – М.: Издательская фирма Восточная литература РАН, 1998. –С. 184.

³ Абдужабборов А. Араб тили. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. –Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007, –Б. 181.